

QAYDNOMA № 3

2023-yil 7 oktyabr kuni soat 12:00 da o'tkazilgan

ToshPTI Kengashining

QAROR LOYIHASI

Kun tartibi:

1. 2022-2023 o'quv yilida talabalarning o'zlashtirish natijalarining tahlili. O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va oldinda turgan vazifalar to'g'risida.

Ma'ruzachi: ToshPTI O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N.Xaitov

2. Institut "Ustoz-shogird" Kengashining faoliyati va istiqboldagi rejalari.

Ma'ruzachi: Institut "Ustoz-shogird" Kengashi raisi t.f.n., dotsent S.A. Begmanov

3. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti bilan "inScience" MCHJ hamkorlik natijalari va istiqbollari.

Ma'ruzachi: "inScience" MCHJ direktor o'rinbosari Ubaydullayeva L.Sh.

4. ToshPTI da Oliy ta'lim vazirligi va sog'liqni saqlash vazirligining hay'at qarorlari ijrosi haqida.

Ma'ruzachi: JYUSHM bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i t.f.d., professor Ruziyev Sh.I.

5. Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash.

Ma'ruzachi: Saylov komissiyasi raisi.

6. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma'ruzachi: Ilmiy Kengash kotibi.

7. Turli masalalar.

Ko'rib chiqildi:

Birinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N.Xaitov 2022-2023 o'quv yilida talabalarning o'zlashtirish natijalarining tahlili. O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va oldinda turgan vazifalar to'g'risida

1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI O'quv ishlari bo'yicha prorektor t.f.d., dotsent Q.N.Xaitov 2022-2023 o'quv yilida talabalarning o'zlashtirish natijalarining tahlili. O'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va oldinda turgan vazifalar to'g'risida:

O'quv jarayonini tashkil etishda simulyatsion ta'limni rivojlantirish.

Talabalar mustaqil ta'lim olishlari uchun videomateriallar tayyorlash va elektron platformaga joylashtirish.

O'quv jarayonini nazoratga qaratilgan ta'limdan nazariy va amaliy bilimlarni berishga, sifatni oshirishga qaratilgan ta'lim shakliga o'tkazish orqali ta'lim sifatini yaxshilash.

Ikkinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Institut "Ustoz-shogird" Kengashi raisi t.f.n., dotsent S.A. Begmanov "Ustoz-shogird" Kengashining faoliyati va istiqboldagi rejalari to'g'risida.

2 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

ToshPTI Institut "Ustoz-shogird" Kengashi raisi t.f.n., dotsent S.A. Begmanov "Ustoz-shogird" Kengashining faoliyati va istiqboldagi rejalari to'g'risida:

1-3-kurslarda murabbiylik va axbarot soatlarini dars jadvaliga kiritish

Tyutorlarga guruhlarini taqsimlashda ijarada yashovchi talabalarni iloji boricha teng taqsimlanishiga erishish.

O'z vazifasini ma'suliyat bilan bajarayotgan tyutor va faol ma'sul ustozlarni moddiy rag'batlantirish

Uchinchi masala bo'yicha ma'ruzachi "inScience" MCHJ direktor o'rinbosari L.Sh. Ubaydullayeva "Toshkent pediatriya tibbiyot instituti bilan "inScience" MCHJ hamkorlik natijalari va istiqbollari" to'g'risida:

3 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:

"inScience" MCHJ direktor o'rinbosari L.Sh.Ubaydullayeva "Toshkent pediatriya tibbiyot instituti bilan "inScience" MCHJ hamkorlik natijalari va istiqbollari" to'g'risida:

konferentsiyalarni o'tkazishni davom ettirish;

Ilmiy ishlarni nashr etish;

"Pediatriya" jurnalining, konferentsiya to'plamlari indeksatsiyasi;

OTMni xalqaro reytinglarda ilgari surish.

To'rtinchi masala bo'yicha ToshPTI JYUSHM bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i t.f.d., professor Ruziyev Sh.I. ToshPTIda Oliy ta'lim vazirligi va sog'liqni saqlash vazirligining hay'at qarorlari ijrosi haqida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilindi.

Beshinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ma'ruzachi Saylov komissiyasi raisi Sh.S.Abdullaeva "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisobot berib o'tdilar

5 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori: Saylov komissiyasi raisi Sh.S. Abdullaev "Professor va o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga va ilmiy unvonga saylash" natijalari to'g'risida hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Oltinchi masala bo'yicha ma'ruzachi ToshPTI Ilmiy Kengash kotibi tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma va uslubiy tavsiyanomalarni o'qib eshittirdi. Ularning muhokamasi bo'lib o'tdi.

6 – masala буйича ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'llanma, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

7. Turli masalalar.

**Kengash raisi
t.f.d., professor:**

**Kengash kotibi
t.f.d., dotsent:**



B.T. Daminov

X.A.Akramova